



MULLA QAMARIDDIN VA BUXORO JADIDCHILIGI

Sodiqova Nargiza Nasri qizi

ZARMED universiteti, o'qituvchi

nagisodiqova@gmail.com +998939992655

[ORCID ID](https://orcid.org/0009-0001-6413-6711) 0009-0001-6413-6711

Annotatsiya Ushbu maqolada Buxorodagi ikkita diniy-ma'rifiy guruh vakillari - konservatorlar va Buxoro amirligidagi ijtimoiy-siyosiy islohotlar tarafdorlarining jamiyatni yangilash haqidagi qarashlari tahlil qilinadi. Konservatorlar va islohotchilar asosan ulamolardan iborat edi. Konservatorlar jamiyatni boshqarishda Qur'on va shariat qonunlariga so'zsiz amal qilgan. Islohotchilar esa ta'lim va davlat boshqaruvini isloh qilishga harakat qilishgan. Rossiya imperiyasining barcha musulmon hududlarida bo'lgani kabi Buxoro amirligida ham din va ta'lim masalalari qarama-qarshiliklarni hal qilishda turlicha yondashuvlar mavjud edi. Konservatorlar mamlakatga kirib kelgan har bir yangilikni bid'at, har tomonlama to'siq deb bilganlar.

Muftiy Abdurazzoqning vafotidan keyin madrasa mudarrisi mulla Qamariddin boshchiligida buxorolik ulamolarning ikkinchi guruhi mamlakatda amalga oshiriladigan islohotlarga keskin qarshi edi. U har doim jadidlar va boshqa din vakillari bilan yaqinlikdan ehtiyot bo'lgan. Maqolada Mulla Qamariddin va Buxoro jadidlari o'rtasidagi ziddiyatlar muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: ulamo, fiqh, madrasa, islohot, shariat, islohot, miting, qozi, maktab.

МУЛЛА КАМАРИДДИН И БУХАРСКИЙ ДЖАДИДИЗМ

Аннотация В данной статье анализируются взгляды представителей двух религиозно-просветительских групп Бухары - консерваторов и сторонников общественно-политических реформ в Бухарском эмирате. Консерваторы и реформаторы были в основном священнослужителями. Консерваторы строго следовали законам Корана и шариата в управлении обществом. Реформаторы пытались реформировать образование и государственное управление. Как и во всех мусульманских регионах Российской империи, в Бухарском эмирате существовали разные подходы к решению религиозных и образовательных конфликтов. Любое нововведение, пришедшее в страну, консерваторы считали ересью и всяческим препятствием.

После смерти муфтия Абдураззака вторая группа бухарских ученых во главе с главой медресе муллой Камариддином выступила резко против проводимых в стране реформ. Он всегда опасался близости с джадидами и представителями других религий. В статье рассматриваются конфликты между муллой Камариддином и джадидами Бухары.

Ключевые слова: улемы, юриспруденция, медресе, реформа, шариат, реформа, собрание, судья, школа.

MULLA KAMARIDDIN AND BUKHARIAN JADIDISM

Abstract This article analyzes the views of representatives of two religious and educational groups in Bukhara - conservatives and supporters of socio-political reforms in the Bukhara emirate - on the renewal of society. Conservatives and reformers consisted mainly of scholars. Conservatives unconditionally followed the laws of the Quran and Sharia in governing society. Reformers, on the other hand, tried to reform education and state administration. As in all Muslim regions of the Russian Empire, in the Bukhara emirate there were different approaches to resolving contradictions in matters of religion and education. Conservatives considered every innovation that entered the country to be an innovation, a comprehensive obstacle.

After the death of Mufti Abdurazzaq, the second group of Bukhara scholars, led by the madrasa head Mulla Qamariddin, was sharply opposed to the reforms being carried out in the country. He was always wary of closeness to Jadids and representatives of other religions. The article discusses the conflicts between Mulla Qamariddin and the Jadids of Bukhara.

Key words: ulema, jurisprudence, madrasah, reform, sharia, reform, assembly, judge, school.

KIRISH

Buxoro jamiyatida amalga oshirilayotgan islohotlar, jadidlar tomonidan targ‘ib qilinayotgan yangiliklarga butunlay norozi kayfiyatda turgan, konservator ulamolar yetakchilaridan biri - madrasa mudarrisi, etnik tatar Mulla Qamariddin bo‘lib, musulmonlarning ruslarga qarshi harakatida faol ishtirok etgan. [1] U hujjatlarda domulla Qamar, mulla Qamariddin no‘g‘ay nomlari bilan ham tilga olingan. Mulla Qamariddin Buxoroda yashasa-da, Orenburg, Toshkent va Istanbuldagi ma‘rifatparvarlar bilan yaqin aloqada bo‘lgan. Maxfiy polisiya xizmatchisi “Tureskiy”ning 1913 yil 3 sentyabrda bergan ma'lumotiga ko‘ra, Buxoroda mulla Qamariddin tomonidan tashkil etilgan musulmonlarning “Ittihod” jamiyati bo‘lib, bu tashkilotning asosiy maqsadi – musulmonlarni g‘ayridinlar qo‘l ostidan ozod qilish bo‘lgan. Tashkilot a'zolari butun Turkiston hududida “Kim musulmonlarga yordamlashsaa, u Ollohni anglagandir” shiori ostida siyosiy-diniy tashviqot olib borganlar va jihod uchun pul yig‘ishgan. Jamiyatning Samarqand, Kattaqo‘rg‘on, Qo‘qon va O‘sh shaharlarida ham a'zolari bo‘lgan. [2]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mavzu tarixiga oid ma'lumotlar quyidagi manbalar asosida o'rganildi:

1.Arxiv ma'lumotlari. O'zbekiston Milliy Arxivi 461-fondidagi Turkiston rayon muhofaza bo'limining Buxorod bo'lgan tartibsizliklar haqidagi ma'lumotlari;

2.Davriy nashrlar. “Туркестанская ведомости”, “Tarjimon”, “Vaqt”, “Oyna”, “Hurriyat” kabi vaqtli matbuot sonlarida Ismoil Gasprinskiy, Behbudiy va mahalliy ziyolilar tomonidan Buxorodagi jadid maktablarning yopilishi bilan bog'liq ma'lumotlar bayon etilgan.

3.MDH mamlakatlarida yaratilgan tadqiqotlar Zimanov S., Germanov V. kabi olimlar tomonidan Buxorodagi ijtimoy-siyosiy harakatlar tarixi aks ettirilgan.

Ushbu maqolada esa Buxorodagi qarama-qarshiliklarda Mulla Qamariddinning roli tahlil qilingan.

NATIJA VA MUHOKAMA

Turkiston rayon muhofaza bo'limi ma'lumotlariga ko'ra, mulla Qamariddin 1910 yil yanvarda Buxoroda bo'lib o'tgan tartibsizliklarning rahbarlaridan biri edi. Mulla Qamariddin shialar tomonidan har yili o'tkaziladigan hazrati Husaynning ta'ziya marosimini shariatga zid deb hisoblab, uni ta'qiqlashni yoqlab chiqadi. Bu haqda fatvo tayyorlab, 12 muftidan 11 tasining muhrini oladi. Faqatgina Domla Ikromga shialarning diniy marosimini ta'qiqlovchi fatvoga muhr bosib berishini so'rab borganida: “Har bir oyning o'n biridan o'n beshigacha xonaqohlarda, mozorlarda va maxsus uylarda xatm yozdahum majlisi barpo qilinur. Agar diqqat nazari bilan qarasangiz ko'rasizkim, ushbu majlislarda ibodat ismidan qancha harom ishlar voqe' bo'lur, dastlab o'zimizdagi bid'atlarga barham beraylik” [1], - deb, Mulla Qamariddinning bu ishiga qarshi chiqadi.

1910 yil 9 yanvarda Buxoroning Samarqand darvozasi tashqarisida shialar yig'ilib, hazrati Husaynning ta'ziya marosimini o'tkazayotgan paytda, tomoshaga yig'ilgan omma orasidan, madrasaning farg'onalik bir talabasi azadorlarning xatti-harakatlari ustidan kuladi. Shunda shialar bu talabaga hujum qilib, uni majruh qiladilar. Tomashabinlar bu holatdan vahimaga tushib, shahar ichiga qochib kiradilar va “Shialar mullabachchalarni o'ldirmoqdalar”, - deb odamlarni yordamga chaqiradilar. Bunday fursatni kutib turgan Burhoniddin rais va mulla Qamariddin xalqni g'alayonga keltiradi.

1910 yil 9 yanvar kuni shunday marosimlardan birida shialarni sunniylar tomonidan mazax qilinishi va bunga javob tarzida bir sunniyning pichoqlanishi qonli harakatlarning boshlanib ketishiga bahona bo'ladi. 1910 yilning 13 yanvarida amirning vorisi – Mir Olimxon Karmanadan Buxoroga yetib kelib, Ostonaqul qo'shbegi, Sayid Olimxon, Mirob Ibrohim to'qsabo kabi batalon komandirlarini, shuningdek, shahar atroflaridagi qishloqlardan kelib g'alayonlarda ishtirok etgan 300 nafarga yaqin shia-forslarni Buxorodan chiqarib yuboradi. [3] Ostonaqul qo'shbegining o'rniga sunniy mazhabi vakili Nasrullabiy qo'shbegi tayinlanadi. Qozikalon Badriddinxo'ja o'rniga Mirzo Baqoxo'ja sadr, Chorjo'y voliysi Mirzo Nizomiddin Urganjiy esa devonbegi etib tayinlanadi. [4]

Valiahd Buxoroning mullalari, rais, olimlari va mujtahidlarini qarorgohi arkda yig'ib, g'alayonlarning bostirilganligini bildiradi hamda bundan keyin shunday nizolarning kelib

chiqishiga yo‘l qo‘ymasliklarini tayinlaydi. Diniy nizolar sababchilari Burhoniddin rais va mulla Qamariddin Ostonaqul qo‘shbegini lavozimidan ketkazishga erishadilar hamda amirlikda o‘z o‘rinlarini yanada mustahkamlab oladilar.

1914 yil 17 aprelda “Yakshambay” laqabli maxfiy xizmatchi bergan ma'lumotda qayd etilishicha, mulla Qamariddin Buxorodagi “Pushaymon” nomli madrasada mudarrislik qilib, asli samarqandlik “zakun” laqabli tatar mullasi Abdurasul bilan Rossiya imperiyasiga qarshi tashviqot ishlarini olib borgan. Bularning har ikkisi ham mahalliy aholi orasida katta obro‘ga ega bo‘lgan. [5]

Mulla Qamariddin boshchiligidagi konservativ qarashdagi ulamolar amir Olimxon tomonidan amalga oshirilayotgan bir qator islohotlarga ham norozilik bildirgan. Jumladan, 1911 yil sentyabr oyida amir Olimxon Buxoro shahri ko‘chalariga tosh yotqizishga farmon berganda, ulamolar yomg‘irdan balchiqqa botgan ko‘chalarga tosh yotqizilishini isrof deb atab, norozilik harakatlarini boshlaydilar. [6] Buxoro shahridagi ulamolarning ochiqchasiga boshlagan norozilik harakatlarini bostirish uchun rus askarlari yordamga keladi va amirning Yaltaga sayohati qoldiriladi.[7] Shahar ko‘chalariga tosh yotqizish to‘xtatiladi.

Ammo 1913 yilning oktyabr oyida amir Buxoroning qadimgi va eski tor ko‘chalarini isloh qilishni boshlab, uzun to‘g‘ri ko‘chalarga tosh yotqiztiradi. Bu paytda Kogonda elektr ustunlari o‘rnatilgan bo‘lib, Buxoro shahrini ham elektrlashtirmoqchi bo‘lganda, yana konservativ ulamolarning noroziligiga duch keladi. Bu norozilik tezda barham topishiga umid qilgan “Turkiston viloyati gazetasi” muxbiri: “Pochta, telegraf, telefonga o‘xshash yangiliklar fatvoga topilgan fiqh kitoblaridan elektr yorug‘i uchun topilmog‘ida shubha yo‘q. Ul ham zamonaviy ekan deb topilsa ajab emas [8], - deydi.

Amir Olimxon buyrug‘iga ko‘ra, 1913 yilda Buxoro shahrida yangi madrasa qurilib, unda tafsir, hadis, kalom, fiqh, usuli fiqh, hisob, tajvid, tarix fanlaridan ta’lim berish belgilab qo‘yiladi. [9] “Vaqt” gazetasida chop etilgan Imom Sobirjon Mustofiyning “Buxoroda madrasa ta’sis etiluv munosabatila” nomli maqolasida amir bu madrasani tashkil etish haqida qo‘shbegi nomiga buyruq chiqarganida, mulla Qamariddinning ta’siri ostida bir necha mufti va beklar madrasani tashkil etilishiga qarshi chiqmoqchi bo‘lishgani haqida yozadi. Ular madrasada dunyoviy fanlarning o‘qitilishiga keng o‘rin ajratilganidan norozi bo‘lib, bu masalada Qozikalon Burhoniddinga murojaat qilishgan. Qozikalon bu ishning boshida shaxsan amirning o‘zi turganini aytib, ularning noroziligiga chek qo‘ygan. [10] Mulla Qamariddin 1914 yil iyulda amir Olimxon tomonidan Buxoro shahridagi 3 ta jadid maktabi yopib qo‘yilgach, Buxorodagi siyosiy agentlikka yangi usulda maktab ochishga ruxsat so‘ragan. Biroq uning bu harakatlari samarasiz tugagan. [11]

Oradan 3 yil vaqt o‘tib, 1917 yil 7 aprelda Buxoro amiri Olimxon tomonidan e’lon qilingan manifestga Mulla Qamariddin boshchiligidagi ulamolar qarshi chiqadi. 1917 yil mart oyida Sankt-Peterburgdan Rossiyaning Buxorodagi siyosiy rezidenti Miller nomiga telegramma kelib, unda islohotlarni amalga oshirishga da’vat etilgan. 1917 yil 18 mart kuni bo‘lajak islohotlar bo‘yicha Miller amir bilan uchrashgan. Amirlikda amalga oshirilishi ko‘zda

tutilayotgan islohotlardan din peshvolari va ruhoniylarning katta qismi norozi bo‘ladi. Burhoniddin qozikalon soliqlarni yengillashtirishga qarshi chiqib, buni shariat qonun-qoidalariga asosida isbotlashga urinadi. U aholi o‘rtasida islohotlarga qarshi norozilik kayfiyatini vujudga keltirish maqsadida joylarga o‘z vakillarini yuboradi. Shu bilan birga amirga uch marta ariza yozib, unda Nasrullo qo‘shbegi islohot masalasida xatoga yo‘l qo‘yayotgani, agar islohot bo‘lsa, amir hukumati tahlika ostida qolishi mumkinligini qayd etadi. Amir tomonidan hech qanday javob bo‘lmagach, qo‘shbegiga xat yozib, unda inqilobga hozirlanayotgan jadidlar, shialar va yahudiylarni jazolash lozimligi, shu yo‘l bilan islohot o‘tkazishdan qutulish mumkinligi to‘g‘risida yozadi. Uning xatiga Nasrullo qo‘shbegi islohot shariatga muvofiq bo‘lib, xalq tinchligi va yurt obodligi uchun o‘tkazilayotganini ta’kidlaydi. [12]

1917 yil 19 mart kuni Yosh buxoroliklarning Muvaqqat hukumatga va Petrograd Sovetiga yozgan murojaatnomasiga javob telegrammasi kelgan va bundan xabar topgan Miller jadidlardan Abdurauf Fitrat va Muso Saidjonov, 23 martda esa Abduvohid Burxonov, Abdurauf Fitrat, Usmon Xo‘jalar bilan ularning siyosiy talablarini bilish maqsadida uchrashgan. Jadidlar Millerga to‘rtta asosiy talablarini bayon qilganlar:

- amir huzurida markaziy vakillik, beklklarda esa mahalliy vakillikni joriy etish;*
- shariat tomonidan belgilangan soliqlardan tashqari, barcha soliqlarni bekor qilish;*
- maktab va matbuot erkinligi;*
- amir atrofidagi mutaassib ma’murlarni almashtirish.* [12]

Ammo Miller bu talablarning “xayoliy” ekanini ta’kidlab, Abdulvohid Burhonovga “Yosh buxoroliklar” tashkilotining barcha a’zolari ism-sharifi yozilgan ro‘yxatini bergan. [12] Bu jadidlar orasida xoin borligini anglatar edi.

Siyosiy rezident 1917 yil 20 martda yirik yer egalari, savdogarlar va ruhoniylar vakillari bilan uchrashib, ularni farmon loyihasi bilan tanishtirgan. [13] 1917 yil 21 martda Miller, Shulga va Vvedenskiy tomonidan tayyorlangan islohotlar loyihasi tashqi ishlar vaziri Milyukov tomonidan ma’qullangan. [14] 1917 yil 25 martda Miller islohotlar yuzasidan qo‘shbegi bilan uchrashib, islohot o‘tkazilishiga qarshi bo‘lgan Burhoniddin qozikalon va Abdullaxo‘ja raisni lavozimidan chetlashtirishga qaror qiladilar. Ularning o‘rniga Sadr Ziyo (Sharifjon Mahdum) qozikalonlikka, Chorjo‘y qozisi Abdusamadxo‘ja raislikka va harbiy mufti lavozimiga Vobkent qozisi Orifxo‘ja tayinlangan. Sobiq harbiy mufti G‘ijduvonga, sobiq rais Abdullaxo‘ja Chorjo‘yga jo‘natilgan. [15]

Miller 1917 yilning 30 mart kuni Petrogradga yuborgan telegrammasida Yosh buxoroliklar samarqandlik jadidlar (A.Shakuriy, M.Behbudiy va boshqalar) bilan yaqinlashib, Samarqand va Buxoroni birlashtirib, yagona avtonom (muxtor) rayonni tashkil etishni maqsad qilganlari va amirni boshqaruvdan mahrum etish rejasini ilgari surganlarini yozib, Petrograddan zudlik bilan amirning farmonini e’lon etishiga ruxsat berilishini hamda Buxoroga qo‘shimcha rus harbiy qismlarini yuborishni so‘raydi. [16] Shu yilning 4 aprelida A.Ya. Miller Muvaqqat hukumat farmon loyihasini ma’qullagani to‘g‘risidagi xabarni P.N.Milyukovdan olgan.

Miller 1917 yil 6 aprelda amirga farmonining o‘zbek va fors tilidagi matnini imzolatgach, qo‘shbegi topshirig‘iga binoan, 1917 yil 7 aprel kuni Arki Oliyda 200 ga yaqin kishi, jumladan, qozikalon Sadr Ziyo, rais, 12 mufti, ulamolar, shayxulislom, saroyning barcha amaldorlari, 15 nafarga yaqin savdogarlar, Rossiyaning Buxorodagi siyosiy rezidenti Miller, yordamchilari Shulga va Vvedenskiy, Kogon shahar ishchi, askar deputatlari sho‘rosidan vakillar hamda Yosh buxoroliklar to‘plangan. Shuningdek, Samarqand Ijroiya qo‘mitasi tomonidan Kuropatkinning 1917 yil 25 martdagi topshirig‘iga binoan, yevropaliklardan Chertov va Gersfeld, musulmonlardan Mahmudxo‘ja Behbudiy va qozi Haydarbek Abu Said o‘g‘lidan iborat vakillar ham ishtirok etgan. [17] Yig‘ilganlarga farmonni qozikalon Sadr Ziyo o‘qib eshittirgan. Farmonda mamlakatda xiroj, zakot va boshqa soliqlar uchun adolat asosini qurish; sanoat va savdoning Rossiya bilan taraqqiy qilishiga alohida e‘tibor berish; amaldorlar ustidan nazorat o‘rnatish; ularga xizmat haqlari belgilash va bundan tashqari aholidan pul olishlarini ta‘qiqlash; shariatga muvofiq, foydali ilm va bilimlarni rivojlantirish uchun choralar ko‘rish; Majlis saylash; davlat xazinasini ta‘sis qilish va amirlik byudjetini belgilash; bosmaxona ochish; qamoqda saqlanayotgan kishilarni ozod qilish kabilarni amalga oshirish nazarda tutilgan edi. [18]

Farmon barcha yig‘ilganlar tomonidan muvofiq deb topilgan. Mahmudxo‘ja Behbudiy amir va barcha yig‘in qatnashchilarini bu muhim hujjat qabul qilinganligi bilan tabriklaydi. Shu kunning o‘zida Eski Buxoro savdogarlarining raisi Mirza Muhiddin Mansurov farmon e‘lon qilinishi munosabati bilan Rossiya tashqi ishlar vaziri Milyukov, knyaz Lvov hamda Davlat dumasi a‘zosi Tevkelevga minnatdorchilik bildirib, telegramma yuboradi.[18]

Islahot farmonining e‘lon qilinishi munosabati bilan Yosh buxoroliklar Ahmad Nayim uyida yig‘ilish o‘tkazib, aholiga amir farmonining mazmunini tushuntirish uchun miting va namoyishlar tashkillashtirish masalasida suhbatlashganlar. Mahmudxo‘ja Behbudiy tavsiyasiga binoan Abdulvohid Burxonov boshchiligidagi eski jadidlar namoyish o‘tkazishga qarshi chiqqanlar. [19] Fitrat boshchiligidagi guruh esa namoyishni yoqlab chiqib, amirga tashakkur izhor etish maqsadida 8 aprelda mitinglar uyushtirganlar.[20]

Namoyishdan xabar topgan Mulla Qamariddin boshchiligidagi mullalar va madrasa talabalari Registonda to‘planib: *“Ey musulmon bandalar! Din yo‘qolmoqda, shariat o‘lmoqda, endi ayollarning yuzi ochiladi, qizlarning nomusi toptaladi, bolalar kofirlarning maktablarida o‘qiydi. Din himoyachilari, iymon, shariat himoyasiga otlaning, g‘azovotga tayyorlaning”*, - deb qichqira boshlaydilar. Shaharda jadidlar va johil mullalar o‘rtasida to‘qnashuvlar boshlanadi. Amir shaharda tinchlikni saqlash, to‘qnashuvlarni to‘xtatish maqsadida namoyish bo‘layotgan joyga harbiy qismni yuboradi. Sarbozlar islhotni qo‘llab-quvvatlab miting uyushtirgan jadidlarga shafqatsiz munosabatda bo‘lganlar. 1917 yil 9 aprelda siyosiy rezident Miller Abdulvohid Munzimga ko‘rsatgan ro‘yxatdagi jadidlarni qamoqqa olish boshlanadi. Jumladan, Hoji Mirbobo, Mirzo Nazrullo, Abdurahim Yusufzoda, Ahmad Nayim, Mirzo Abdulfayozov, Mirzo Ahmad, Mirzo Abdurasul va boshqalar zindonga tashlangan. Jadidlardan

Mirzo Nazrullo 150 darra, Hoji Mirbobob 120 darra, Sadriddin Ayniy esa 75 darra urib jazolangan. [21]

1917 yil 10 aprel kuni jadidlar poytaxtda yana namoyish uyushtirib, jadidlarni qamoqqa olishni to‘xtatish hamda farmonda nazarda tutilgan islohotlarni amalga oshirishni talab qilganlar. Natijada Yosh buxoroliklarga qarshi terror kuchaygan. Ular Yangi Buxoro (hozirgi Kogon)ga qochishga majbur bo‘lganlar.

1917 yil 14 aprelda mulla Qamariddin boshchiligida mullalarning norozilik to‘lqini yana kuchaydi.[22] Natijada Buxoroda tartib-intizom o‘rnatish va tinchlikni saqlash maqsadida Samarqanddan rus soldatlari chaqirtiriladi.[23]

1917 yil 15 aprelda Eski Buxoroda mullalarning islohotga qarshi norozilik harakatiga bevosita boshchilik qilgan Mulla Qamariddin Yangi Buxoro militsiyasi tomonidan hibsga olinadi hamda 38 kun qamoqda yotgach, qamoq jazosi Buxorodan surgun qilish jazosi bilan almashtiriladi.[23] Mulla Qamariddinning Buxorodan surgun qilinishi qadimchi-ulamolarning harakatini susaytirmaydi. Balki 1918 yil mart voqealari va 1920 yil avgustda amir hokimiyati tugatilgandan keyin ham goh ochiq, goh yashirin ravishda norozilik harakatlari yangi yetakchilar rahbarligida amalga oshirildi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Mulla Qamariddin Buxoro jamiyatiga kirib kelayotgan yangiliklarning barchasi g‘ayridinlarga tegishli deb hisoblab, ularga doimiy suratda qarshilik qilgan. Uning maqsadi - shiddat bilan ruslar tomonidan mustamlakaga aylantirilayotgan islomiy davlatlar Turkiston va Buxoroni g‘ayridinlar zulmidan ozod qilish, mamlakat boshqaruvida shariat qonunlariga so‘zsiz amal qilishni ta‘minlashdan iborat bo‘lgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Milliy arxivi, I-461-fond, 1-ro‘yxat, 1168-yig‘majild, 180-varaq.
2. O‘zbekiston Milliy arxivi, I-461-fond, 1-ro‘yxat, 1312-yig‘majild, 494-varaq.
3. Raxmonov T. Buxoroda 1910 yil yanvar voqealari // O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 2-jild. Toshkent, 2001. 307-bet.
4. Sayyid Mansur Olimiy. Buxoro – Turkiston beshigi / Fors tilidan tarjima, tarjimon nomidan so‘z boshi va ayrim izohlar muallifi H. To‘raev. Buxoro, 2004. 61-bet.
5. O‘zbekiston Milliy arxivi, I-461-fond, 1-ro‘yxat, 1470-yig‘majild, 38-varaq; 2178-yig‘majild, 17-varaq.
6. В Бухаре // “Туркестанская ведомости”, № 92, 28 апреля 1911 года.
7. Ismoil Gasprinskiy. Buxoroi sharif // “Tarjimon”, № 37, 1911 yil 9 sentyabr.
8. Улучшения в Бухаре // Туркистон вилояти газети, № 81, 1913 йил 20 октябрь.
9. Fitrat. Buxoro hukumatining islohkorona qadamlari (Iqromot islox koroni hukumat Buxoro) // “Oyna”, № 8, 1915 yil 30 yanvar. – B 198-200.
10. Imom Sobirjon Mustofiy. Buxoroda madrasa ta'sis etiluv munosabatila // “Vaqt”, 1915 yil 24 dekabr, № 1948.

11. O‘zbekiston Milliy arxivi, I-461-fond, 1-ro‘yxat, 1470-yig‘majild, 100-varaq.
12. Sadr al-Din Ayni. Bukhara inqilabining tarikhi. - B. 177,176, 182.
13. Зиманов С.З. От освободительных идей к Советской государственности в Бухаре и Хиве. - Алма-аты: Наука, 1976. – С. 102-103.
14. История Бухарской и Хорезмской Народных Советских Республик. - Москва, 1971. – Б. 48.
15. Германов В.А. Почему не состоялись реформы эмира Саида Алимхана // “Ўзбекистонда ижтимоий фанлар”, 1995. - № 5-8. - Б. 28.
16. Генис В. Вице-консул Введенский. – С. 88.
17. Behbudiy M. Buxoro voqealari // “Hurriyat”, 1917 yil 1 may. - № 5.
18. O‘zbekiston Milliy arxivi, I-3 fond, 2-ro‘yxat, 513-ish, 42-varaq; I-3 fond, 150-ish, 80-varaq.
19. Алимова Д. История как история, история как наука. II том. Ташкент: Узбекистан, 2009. – С. 136.
20. Buxoroda mullalar harakati // “Vaqt” (Orenburg), 1917 yil 11 aprel, - № 2205; Muhammad Ali Baljuvoni. Tarixi nofeiy. (Tojik tilidan tarjima, so‘z boshi va izohlar mualliflari Sh. Vohidov, Z. Choriev). Toshkent: Akademiya, 2001. - B.45.
21. Burhon Habib. Buxoroda Qozon hay'ati// “Ulug‘ Turkiston”, 1917 yil 28 iyun. - № 12.
22. Abdulqodir. Yosh buxorolilar xitobi // “Vaqt”, 1917 yil 18 aprel. - № 2209.
23. S. A. Mulla Qamariddinni Buxorodan suruv // Vaqt, 1917 yil 2 iyun, № 2232.